Gamifikatsiya texnologiyasining boshlang'ich ta'limdagi pedagogik samaradorligi	538
Nurniyazova Albinaxan Saparniyazovna	
Teatr pedagogikasining bo'lajak tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni	542
Nurova Rohila Ismoil qizi	
Bolalar kvazimuloqotining psixolingvistik xususiyatlari	547
Yuldasheva Dilafuz Maxamadaliyevna	
Педагогические условия формирования у старших дошкольников основ экономической культуры ..	550
Жураева Наргиза Таировна, Азимова Махбуба Хасановна	
Развитие лексико-грамматического строя речи у детей старшего дошкольного возраста в проектной деятельности	553
Жураева Наргиза Таировна, Алимова Зилола Закировна	
Обогащение представлений старших дошкольников о разных странах мира в детской проектной деятельности	556
Жураева Наргиза Таировна, Дониёрова Шахзода Зафаровна	
Использования дидактических игр для развития коммуникативных умений в группе детей старшего дошкольного возраста	560
Жураева Наргиза Таировна, Рахманова Гуласал Рахматуллаевна	
Развитие творческих способностей дошкольников средствами музыкального фольклора	564
Жураева Наргиза Таировна, Хашимова Хилола Абдусаттаровна	
Karalli va takroriy limitlar orasidagi bog'liq	568
Mambetturdiyev Muxammedali	
Современные заимствования в русском языке (названия фаст-фуда)	572
Рабиева Рухшона Бобожоновна	
качественное высшее образование - основа инновационного прогресса Узбекистана	576
Расулов Илхом Инамович	
Texnologiyalar yordamida og'zaki tarjimani takomillashtirish: AI va avtomatik translyatsiya tizimlarining imkoniyatlari	580
Rajabova Umida Rajab qizi	
Kompyuter grafikasi vositalari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari	583
Ergasheva Dilafuz Chori qizi	
A Conceptual Teacher Digital Competence Model for Vocational Education	587
Alisher Jumanov, Guloyim Rakhimboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligi tushunchasi	591
Sa'dullayeva Nafisa Ilhomjon qizi, Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik talqini	594
Sapayeva Gulnoz Azimbayevna	
Zamonaviy va an'anaviy tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik ta'siri. O'zbekiston oilalarida qiyosiy tahlil	600
Tursunova Aziza Ixtiyorovna	
Tarbiyachi faoliyatida tarbiyalanuvchi shaxsni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	603
Yusupova Vasila Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	



IB KELAJAK TA'LIMINING ASOSIY JIHATLARI

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrası professor v/b, p.f.d.

Annotatsiya: Ushbu kelajak ta'limi IB dasturi, uning ahamiyati, ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, yoshlarni jahon mehnati bozoriga tayyorlash, dasturni qo'llab-quvvatlash, O'zbekistondagi inson kapitalini rivojlantirish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: kelajak, ta'lim, dastur, ta'lim sifati, mazmun, metodika, samara, mexanizm, modernizatsiya, tahlil, tajriba, imkoniyat, izlanish, tanqidiy, tahlil.

Abstract: This future education IB program, its importance, its importance in improving the quality of education, preparing young people for the global labor market, supporting the program, and developing human capital in Uzbekistan are highlighted.

Key words: future, education, program, quality of education, content, methodology, effect, mechanism, modernization, analysis, experience, opportunity, research, critical, analysis.

Аннотация: Освещены будущая образовательная программа IB, ее значение, ее значение в повышении качества образования, подготовке молодежи к мировому рынку труда, поддержке программы и развитии человеческого капитала в Узбекистане.

Ключевые слова: будущее, образование, программа, качество образования, содержание, методология, эффект, механизм, модернизация, анализ, опыт, возможности, исследование, критический, анализ.

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turadi. Globallashuv jarayonining tezlashishi dunyoda barcha sohalarida raqobat muhitini yanada kuchaytirmoqda. Zamonaviy dunyoda intellektual va ijtimoiy kapital davlatlar taraqqiyotida tobora muhim o'rin egallamoqda. Bunday sharoitda zamonaviy hamda sifatli bilim berishga asoslangan ta'limgina mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda nostandart, kreativ va tanqidiy fikrlash, yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarga talab ortadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq uzluksiz jarayondir. Sifatli ta'limni amalga oshirish va yuqori natijalarga erishish nafaqat sohadagi mutaxassislardan balki jamiyatning har bir a'zosidan katta mas'uliyat hamda fidoyilikni talab etadi. 2023-yildan boshlab mamlakatimizda maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilindi. Bu borada yangi darsliklar ishlab chiqilishi, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etildi. Ta'lim sifati bevosita bitiruvchilarning zamonaviy malaka va kasb-hunar ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 9-sentyabr kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqalayotgani qayd etildi.

Bugungi kunda kasblar deyarli har kuni yo'qolib, yangilari paydo bo'layotgan, axborot biz o'zlashtirishga ulguranimizdan ham tezroq ko'payib borayotgan bir paytda, ota-onalar tobora ko'proq o'yga tolmoqda: qanday ta'lim farzandimizni hayotga chindan ham tayyorlaydi? Qaysi tillar kerak bo'ladi? 10–15 yildan keyin qaysi

ko'nikmalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi? Shunday sharoitda Xalqaro Bakalavriat – IB (International Baccalaureate) haqida tobora ko'proq so'z yuritilmoqda.

IB dasturi yarim asrdan ziyod vaqt oldin Shveysariya paydo bo'lgan va bugungi kunda 125 mamlakatda faoliyat yuritmoqda. Uning o'ziga xosligi shundaki, u milliy dastur emas, balki global va mahalliy jihatlarni uyg'unlashtiruvchi universal tizimdir. IB maktabida o'quvchi o'z madaniyatini e'zozlashni va ayni paytda boshqalar madaniyatini tushunishni, o'zini katta dunyoning bir bo'lagi sifatida his qilishni o'rganadi.

IB (International Baccalaureate) – bu butun dunyo bo'yicha tan olingan xalqaro ta'lim dasturi bo'lib, u o'quvchilarni nafaqat akademik bilimlarga, balki mustaqil fikrlash, global qarash va shaxsiy rivojlanishga ham tayyorlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

IB kelajak ta'limining asosiy jihatlaridan biri global qarash va xalqaro yondashuv ekanligi. IB o'quvchilarda turli madaniyatlarni tushunish, tolerantlik va xalqaro hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kelajakda ta'lim va ish faoliyati tobora ko'proq global miqyosda kechadi, IB esa bunga mos tayyorgarlik beradi.

Global qarash (Global Mindset) - IB dasturi o'quvchilarda faqat milliy yoki mahalliy doirada emas, balki butun dunyo miqyosida fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu orqali tolerantlik va madaniy xilma-xillikni qadrlash – o'quvchilar turli millat, din va madaniyat vakillarining qarashlarini tushunish va hurmat qilishni o'rganadilar. Shu bilan birgalikda umumjahon muammolarni hal qilishga tayyorlash – iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish, inson huquqlari kabi masalalarni tahlil qilish orqali keng qamrovli fikrlash hosil qilinadi. Ta'lim oluvchilarda bilimlarni o'zaro bog'liqlikni anglash – mahalliy qarorlarning global oqibatlari va global voqealarning mahalliy hayotga ta'sirini tushunish.

Xalqaro yondashuv (International-Mindedness) IB falsafasining markazida turadi. O'quvchilarni "dunyo fuqarosi" sifatida tarbiyalash – ya'ni o'zini bir davlat vakili emas, balki butun insoniyatning mas'uliyatli a'zosi sifatida his qilishga o'rgatadi. Buning uchun o'quvchilar turli tillarni o'rganishlari zarur bo'ladi. IB dasturlarida chet tillarini o'rganish majburiy, chunki til – boshqa madaniyatni tushunish kalitidir.

O'quv jarayonida ko'p qirrali yondashuv – bilimlar turli mamlakatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy tajribasi asosida o'rgatiladi.

Tadqiqot va tanqidiy fikrlash – o'quvchilar ma'lumotni faqat yodlash emas, balki uni tahlil qilish va global kontekstda qo'llashni o'rganadilar.

Kelajak ta'limi uchun ahamiyati shundaki, global hamkorlik – yoshlar kelajakda xalqaro jamoalarda ishlashga tayyor bo'ladilar. Barqaror rivojlanishga hissa qo'shish orqali esa, ular ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol bo'lishadi.

IB o'quvchilarni jamiyat va atrof-muhit oldidagi mas'uliyatni his etishga o'rgatadi. Kelajak ta'limi ham insoniyatning barqaror taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Innovatsion fikrlash – turli madaniyatlar kesishmasida yangi g'oya va echimlar paydo bo'ladi. An'anaviy yodlashga asoslangan ta'limdan ko'ra, IB amaliyotga, tadqiqot va loyiha ishlari orqali o'qitishga ko'proq urg'u beradi. Bu kelajak ta'limining asosiy tamoyiliga aylanishi kutilmoqda.

IB dasturining eng katta kuchli shundaki, u o'quvchilarga "mahalliy ildiz, global qarash" tamoyili asosida ta'lim beradi. Bu esa kelajak avlodni nafaqat bilimli, balki xalqaro maydonda raqobatbardosh, mas'uliyatli va ochiq fikrli shaxs sifatida shakllantiradi.

Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish. IB dasturi o'quvchilardan tanqidiy va tahliliy fikrlashni talab qiladi. Bu esa ularni tez o'zgarayotgan dunyoda yangiliklarga moslasha oladigan va ijodkor shaxslarga aylantiradi.

Hayotiy ko'nikmalarga urg'u berilishi. Faqat bilim emas, balki kommunikatsiya, jamoada ishlash, vaqtni boshqarish, tadqiqot olib borish kabi hayotiy zarur ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu kelajakda mehnat bozorida eng muhim ustunliklardan biridir.

IB (International Baccalaureate) dasturining asosiy bosqichlari:

1. PYP (Primary Years Programme)

3 yoshdan 12 yoshgacha. Bolalarda qiziqish uyg'otish, mustaqil o'rganishga o'rgatish, o'zini va dunyoni turli jihatdan tushunishni shakllantirish asosiy maqsadi hisoblanadi.

PYPning asosiy xususiyatlari:

- Inquiry-based learning (So'roqqa asoslangan o'qitish).** Bunda o'quvchilar tayyor ma'lumotni yodlamaydi, balki savol berish va javob topish orqali bilim hosil qiladi. Masalan: "Suv nima uchun bug'lanadi?" – bolalar tajriba o'tkazib o'zlari topishadi.
- Transdisciplinary yondashuv.** Fanlar alohida o'rgatilmaydi, balki bir mavzuga bog'lab o'rganiladi. Masalan: "Sayohatlar" mavzusida tarix, geografiya, matematika va til birlashtiriladi.



3. Learner Profile (O'quvchi qiyofasi). Har bir bola quyidagi sifatlarni rivojlantiradi:

- bilimdonlik (knowledgeable);
- izlanishchanlik (inquirer);
- ijodkorlik (thinker);
- ochiq fikrlilik (open-minded);
- g'amxo'rlik (caring);
- mas'uliyatlilik (principled);
- muvozanatlilik (balanced);
- jasurlik (risk-taker).

Learner Profile o'qitish usuli: O'yin, loyiha va savollar orqali o'rganish. Masalan: Men kimman? Biz qanday qilib o'zimizni tashkil qilamiz? Dunyo qanday ishlaydi? Natija: Bola mustaqil savol berishni, javob topishni va dunyoni kuzatishni o'rganadi.

Buning natijasida (PYP bitiruvchisi qanday bo'ladi?) o'quvchilar mustaqil o'qishga, qiziqib savol berishga, jamoada ishlash va fikrini ifodalashni, dunyoqarashi keng va turli madaniyatlarni hurmat qilish, o'z bilimlarini amalda qo'llay olishga o'rganadilar. PYP – bu bolaning ilk yillarida “bilim olish” emas, balki “bilim topishni o'rganish” ga asoslangan tizimdir. Shuning uchun IB kelajak ta'limining eng muhim bosqichi hisoblanadi.

2. MYP (Middle Years Programme)

Bu bosqich 11 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan va u PYP bilan DP o'rtasidagi “ko'priq” vazifasini bajaradi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, global dunyoqarash va o'z qiziqishlarini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu davrda o'quvchi o'zini kim sifatida ko'rayotgani va kelajakda qaysi sohada davom etishini tushunib boradi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni va turli fanlar o'rtasida bog'liqlikni ko'ra olishni shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

MYP asosiy xususiyatlari 8 ta fan sohasi (har yili o'quvchi ularni o'rganadi): til va adabiyot, ikkinchi til (xorijiy tillar), ijtimoiy fanlar (tarix, geografiya va boshqalar), tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya), matematika, san'at, jismoniy tarbiya va sog'lom turmush, dizayn va texnologiyani o'rganadilar.

MYP faqat faktlarni emas, balki tushunchalarni o'rganishga urg'u beradi. Masalan: tarix darsida shunchaki sanalarni yodlash emas, balki “o'zgarish”, “adolat”, “ziddiyat” kabi tushunchalarni tahlil qilish.

Fanlar o'zaro bog'liq holda o'qitiladi. Masalan: matematika + geografiya = statistik xaritalar tuzish. O'quvchilar global kontekstlar tuzadi. Bu orqali o'quvchilar bilimni hayotga bog'lab o'rganadilar.

MYP oxirgi yilida har bir o'quvchi o'ziga qiziq bo'lgan mavzuda mustaqil shaxsiy loyiha (Personal Project) yaratadi. Masalan: robot yasash, kitob yozish, ekologik kompaniya, mobil ilova yaratish. Bu loyiha o'quvchining mustaqilligi, tadqiqot qobiliyati va ijodini ko'rsatadi.

MYP Personal Project o'quvchilarda texnologiya va innovatsiyalardan keng foydalanishga o'rgatadi.

- Mobil ilova yaratish (masalan, maktab jadvalini oson va qulay topish uchun).
- Arduino yoki Raspberry Pi orqali “aqlli uy” qurilmasi yasash.
- Onlayn o'yin yoki veb-sayt ishlab chiqish.

O'zi tanlagan ilmiy mavzu bo'yicha eksperiment o'tkazib, natijalarni taqdim qilish (masalan, turli o'g'itlarning o'simlik o'sishiga ta'siri).

Video darslar kontentini tayyorlash va YouTube da joylashtirish, o'zining rassomlik ko'rgazmasini qisqa metrajli film suratga olish, maktabda madaniyatlararo festival tashkil qilish, musiqa albomi yozib chiqarishni o'rganadilar.

Jamiyat va barqarorlikni ta'minlashga o'z hissalarini qo'shishga o'rgatadi. Masalan. ekologik kompaniya (plastikni kamaytirish bo'yicha loyiha), mahalliy muammoga yechim topish (masalan, maktab hududini obodonlashtirish), xayriya tadbiri o'tkazish va muhtojlarga yordam ko'rsatish, energiya tejash bo'yicha loyihalar ishlab chiqish.

Personal Project orqali o'quvchi nimaga erishadi?

O'quvchilarda qiziqishini amaliy natijaga aylantiradi, tadqiqot metodikasini o'rganadi, mustaqil ishlashni va vaqtni boshqarishni o'rgatadi. Natijani taqdim qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Eng muhimi kelajakdagi kasb yoki ta'lim yo'nalishini tanlashda aniqroq qaror qila oladi.

MYP shaxsiy loyihasi – bu o'quvchining ichki dunyosini va kelajakdagi orzularini namoyish etuvchi katta qadam. Buning natijasida IB bitiruvchilari ko'pincha universitetlarda yuqori baholanadi.

MYP bitiruvchilari mustaqil va tanqidiy fikrlash, bir nechta fanlarni bog'lagan holda muammolarni hal qilish, o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida ko'ra olish, innovatsion fikr va ijodiy yondashuvni qo'llay olish, qobiliyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida DP bosqichiga tayyor bo'ladi. MYP – bu o'quvchini “bilim olishdan” tashqari “bilimni hayotda qo'llash” ga o'rgatuvchi bosqich. Ayniqsa, Personal Project orqali bola o'z qiziqishini amaliy natijaga aylantiradi.

3. DP (Diploma Programme)

Bu bosqich IB tizimining yakuniy va eng mas'uliyatli qismi hisoblanadi. O'quvchilarni universitet va mustaqil hayotga to'liq tayyorlash, ularda akademik chuqurlik, keng dunyoqarash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish asosiy maqsadi hisoblanadi.

DP (Diploma Programme)ning asosiy tuzilishi 6 ta fan sohasi (o'quvchi har biridan bitta tanlaydi): til va adabiyot, ikkinchi til (xorijiy til), ijtimoiy fanlar (tarix, iqtisod, psixologiya va boshqalar), tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya), matematika, san'at (yoki qo'shimcha fan sifatida yuqoridagilardan yana biri)ni o'z ichiga oladi. Fanlar 2 darajada o'qitiladi. HL (Higher Level) – chuqur o'qitiladigan fanlar (odatda 3–4 ta). SL (Standard Level) – standart darajadagi fanlar (odatda 2–3 ta).

DPning uchta asosiy komponenti (Core):

- 1. TOK (Theory of Knowledge – Bilim nazariyasi).** “Biz nimani qanday bilamiz?” degan savol atrofida fikrlash. Fanlararo bog'liqlikni tahlil qilish.
- 2. EE (Extended Essay – Kengaytirilgan esse).** 4000 so'zli mustaqil ilmiy tadqiqot. Masalan: “Sun'iy intellekt va ta'lim”, “Iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi”kabi mavzulardan esse yozadilar.
- 3. CAS (Creativity, Activity, Service).** C – ijodiy loyihalar (san'at, yozuv, dizayn). A – sport va jismoniy faoliyat. S – jamiyatga xizmat (xayriya, volontyorlik). CAS o'quvchini faqat “akademik bilimli” emas, balki ijodkor, sog'lom va g'amxo'r inson sifatida tarbiyalaydi.

Baholash jarayoni: har bir fan 1 dan 7 gacha ball bilan baholanadi. Core (TOK + EE + CAS) orqali qo'shimcha 3 ball olish mumkin. Maksimal ball: 45. Diplom olish uchun odatda 24 va undan yuqori ball talab qilinadi.

DP bitiruvchisining imkoniyatlari: dunyoning ko'plab universitetlari IB Diplomasini yuqori darajada qadrlaydi. Ba'zi universitetlarda HL fanlari bo'yicha yaxshi baho olgan talabalar 1-kurs fanlaridan avtomatik “credit” olishadi. O'quvchi mustaqil fikrlash, tadqiqot olib borish va global muammolarni tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi.

DP – bu IB tizimining eng asosiy va muhim bosqichi bo'lib, u o'quvchini faqat universitetga emas, balki hayotga ham tayyorlaydi. O'quvchi akademik chuqur bilim, ijodiy fikr, jismoniy sog'lomlik va ijtimoiy mas'uliyatni bir vaqtning o'zida o'zlashtiradi. Dunyodagi mashhur universitetlar IBni tan oladi. IB Diplomasiga ega o'quvchilar 90 dan ortiq mamlakatda 5000dan universitet tomonidan tan olinadi. Ko'plab nufuzli oliygohlar IB bitiruvchilarini yuqori baholashadi, chunki ular mustaqil fikrlash, tadqiqot va global dunyoqarashga ega bo'lib kelishadi.

AQSh universitetlari ko'pincha IB fanlaridagi yuqori ballarni credit sifatida tan olib, 1-kurs fanlaridan ozod qiladi. Buyuk Britaniya universitetlari esa IB ballariga aniq talab qo'yadi (masalan, Oxford va Cambridge odatda 38–40 ball atrofida talab qiladi). IB bitiruvchilari Kanadada ko'pincha grant va stipendiyalar olish imkoniyatiga ega bo'ladi. IB DP bitiruvchilari dunyoning eng nufuzli universitetlariga kirishda ustunlikka ega.

IB dasturi O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlariga moslashtiradi. IB dasturi xalqaro darajada tan olingan, bu esa O'zbekistondagi ta'limni jahon standartlariga yaqinlashtiradi. Bu dasturda o'qitilgan o'quvchilar dunyodagi eng nufuzli universitetlarga (Oksford, Garvard, MIT va boshqalar) to'g'ridan to'g'ri kirish imkoniga ega bo'lishadi.

Shuningdek yoshlarning tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. IB o'quvchilardan mustaqil izlanish, murakkab muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishni talab qiladi. Bu turdagi ta'lim mexanik yodlashga emas, balki fahmlash va tadqiq etishga asoslangan. Hamda chet tillarini mukammal o'rganish imkoniyatini beradi. IB dasturida o'quvchilar kamida ikkita tilda o'qishadi – bu ularning til bilimini va global muloqot qobiliyatini oshiradi. O'quvchilar faqat “bilim egasi” emas, balki faol jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalanadi. IB dasturida zamonaviy fanlar – matematika, tabiiy fanlar, kompyuter texnologiyalari va sun'iy intellekt asoslari ham qamrab olinadi. Bu O'zbekistondagi Inson kapitalini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchilar uchun yangi salohiyat eshiklarini ochadi. IB dasturini joriy etgan maktablarda ishlash uchun o'qituvchilar maxsus xalqaro tayyorgarlikdan o'tadi. Bu ularning kasbiy salohiyatini va ta'lim sifati darajasini oshiradi.



Bugungi kunda mamlakatimizda Toshkent va boshqa shaharlarda bir necha xususiy va davlat maktablari IB dasturini joriy etildi. Masalan, Tashkent International School (TIS), Westminster International School, va ba'zi xususiy STEM maktablar IB akkreditatsiyasiga ega. Prezidentimiz qarorlarida xalqaro standartlarni joriy etish va IB kabi dasturlarni kengaytirish vazifasi belgilangan.

Xulosa. IB dasturi mamlakatimiz uchun muhim imkoniyatlar eshigini ochadi. Ta'lim sifatini oshiradi, yoshlarni jahon mehnati bozoriga tayyorlaydi, nufuzli universitetlarga yo'l ochadi, malakali mutaxassislar salohiyatini oshiradi. Ushbu dasturni qo'llab-quvvatlash orqali O'zbekiston innovatsion ta'lim modeliga o'tayotgan davlatlar qatoriga qo'shilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
3. International Baccalaureate Organization. What is an IB education? Cardiff: IBO. 2013.
4. Hill I. Evolution of education: International Baccalaureate and international education. Journal of Research in International Education, 11(3), 245–261. 2012.
5. Bunnell T. The International Baccalaureate: Its growth and complexity of challenges. London: Routledge. 2016.
6. Drake B., & Reid E. Global Mindedness and the International Baccalaureate. Journal of International Education Research, 14(1), 1–12. 2018.
7. Resnik J. The Denationalization of Education and the Expansion of the International Baccalaureate. Comparative Education Review. 56(2), 248–269. 2012.
8. International Baccalaureate Organization. International-mindedness: A guide for teachers. Cardiff: IBO. 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.